

**MADANIYAT VA SAN'AT KOLLEJI O'QUVCHILARIDA NOMODDIY
MADANIY MEROSGA OID MA'LUMOTLARNI INGLIZ TILIDA
O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Isakulova N. J. (O'zDJTU) Abstract

The article analyzes the peculiarities of study the information about Intangible Cultural Heritage in English by students of colleges of art and culture.

Резюме

В статье анализированы особенности изучения информации по нематериальному культурному наследию на английском языке учащимися колледжей искусства и культуры.

Tayanch tushunchalar: *nomoddiy madaniy meros, milliy urf-odat, uzluksiz ta'Um, chet tillarni o'rganish.*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3.3.2-bandida uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari amalga oshirishda chet tilini o'rganish talab qilinadi. Shuningdek, Prezidentimiz Islom Karimovning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, 2013- 2014-o'quv yilidan boshlab xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatish joriy etilgani barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33- moddasida xalqaro hamkorlik quyidagicha bayon etilgan: ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega¹. Shu boisdan ta'limning barcha turlarida chet tilini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun ta'lim tizimini filologik yoki nofilologik yo'nalishlarida chet tili fani uchun mavjud o'quv adabiyotlarini modernizatsiya qilish va yangilarini yaratishning dolzarb muammolari o'rganish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida "Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish" deb belgilab berilgani nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish masalalarini har tomonlama chuqur o'rganilishi uchun sharoit yaratilib berildi.

¹Узбекистан Республикаси Конституцияси. - Тошкент: Узбекистан, 2012. - Б. 47.

Ma'lumki, nomoddiy madaniy meros o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari, ijro san'ati, jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar hamda an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarda namoyon bo'ladi*.

"Ingliz tili" fanini o'qitish mazmuniga nomoddiy madaniy merosga oid ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. *Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar* yo'nalishi insoniyatning tabiat va koinot bilan uyg'unligini ta'minlash borasidagi bilim va malakalami o'z ichiga oladi. An'anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, oyning turishiga qarab keyingi oyning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o'mi yoki imorat qurish joyini aniqlash, kasblar bilan bog'liq an'anaviy bilim va ko'nikmalar (milliy sataroshlik, an'anaviy tabibchilik, imoratsozlik, miroblik), pazandachilik yo'nalishlarida turli xil milliy taomlarni tayyorlash uslublari (tandir kabob, g'ilimindi, cho'pchima, hijjon va boshqa hududlarga xos bo'lgan taomlarni tayyorlash)ni o'z ichiga oladi². Ayniqsa, tabiat va koinotga oid ma'lumotlar bilan o'rganish o'quvchining o'zlashtirishida o'z ahamiyatiga egaligini Yan Amos Komenskiy o'z asarida bayon etgan. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi³. Uning didaktikasida tabiiylik metodi asosiy rol o'ynab, bu metodning mohiyati, bolaning yoshini, bilim hajmini, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darsni tabiat borligiga moslab o'tishdan iboratdir⁴.

Ingliz tili nutq faoliyati turlarini o'rgatishda ingliz tili materiallari va nutq faoliyati turlarini o'rgatishga e'tibor qaratiladi. Bu esa ingliz tili o'qitishning maqsadini tashkil etadi. Ma'lumot olish tinglab tushunish va o'qish orqali amalga oshsa, ma'lumot berish gapirish va fikrni yozma bayon qilish orqali o'rganiladi. Nutq faoliyati shakli: og'zaki va yozma. Hozir ingliz tilini

*"Узбекистан Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрь, 222-сонли **"2010- 2020 йилларда номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида"**ги **Қарори**. www.lex.uz

²Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича Конвенцияни амалга ошириш бўйича оператив йўриқнома // Узбекистан номоддий маданий мероси, 2012. - Б. 33 [httpD.7Zich.uz/uz/legal/159-pub-3](http://D.7Zich.uz/uz/legal/159-pub-3)

³Ҳошимов К., Нишонов С., Иномов М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. - Тошкент Ўқитувчи, 1996. - Б. 407.

⁴Ҳошимов К., Нишонов С., Иномов М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. - Төтен-Ўқитувчи, 1996. - Б. 409.

amaliy loyiha doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida madaniyat va san'at kolleji o'quvchilarida NMMga oid ma'lumotlarni ingliz tilida o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etildi. Mazkur jarayonda NMM tushunchasi, muhofaza tushunchasi, muhofaza qilish shakllari, NMM yo'nalishlari, jumladan tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar "Ingliz tili" darslarida o'rganilishi tahlil etilib, test natijalari asosida kuzatildi.

1-jadval

№	"Ingliz tili" fanidagi mavzular	Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar
1.	International English	O'zbekistondagi tabiat va koinotga oid bilim va urf- odatlar
2.	Weather	Ob-havo darakchilari
3.	A place to live	Hududiy urf-odatlar
4.	Eating out	Pazandachilik bilan bog'liq bilim va tajribalar
5.	Food	Bog'dorchilik, dehqonchilik bilan bog'liq bilimlar
6.	Future plans	Bog'dorchilik bilan bog'liq urf-odatlar
7.	Getting around town	Umumiy bilimlar
8.	Cooking a meal	Pazandachilik bilan bog'liq hududlardagi bilim va tajribalar
9.	In the country	Tabiat va koinot bilan bog'liq marosimlar, urf- odatlar
10.	Health	Xalq tabobati bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar
11.	People's lives	Kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, o'zining turishiga qarab keyingi o'zining taxminiy ob-havosini aniqlash
12.	Guests	Pazandachilik yo'nalishlarida turli xil milliy taomlarni tayyorlash uslublari
13.	Professions and jobs	Kasblar bilan bog'liq an'anaviy bilim va ko'nikmalar (milliy sataroshlik, an'anaviy tabibchilik, imoratsozlik, miroblik)
14.	Show time	An'anaviy xalq taqvimlari
15.	Environment	Tabiat va koinot bilan bog'liq marosimlar, urf- odatlar
16.	News and views	Hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish
17.	Travel and Tourism	Qudug qazish o'mi yoki imorat qurish joyini aniqlash

Tajriba-sinovning dastlabki bosqichida dastlabki test natijalari olinib, keyingi bosqichda, ya'ni metodik bosqichida "Ingliz tili"ning mavzularida tar.

va koinotga oid bilim va urf-odatlarni singdirish yuzasidan metodik ishlanmalar tavsiya etilib, tavsiya etilgan metodik ishlanmalar asosida o'tkazilgan dars mashg'ulotlaridagi kamchiliklar o'rganildi, yakuniy bosqichda yakuniy test natijalari olinib, tajriba-sinovning dastlabki va yakuniy natijalari $x^2 \sim x_i$ kvadrat metodi asosida umumlashtirildi, tajriba-sinov maydonchalaridagi tajriba va sinov guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari taqriban 4,5 foizga farq qilinishi tajriba-sinov jarayonida aniqlandi. Tajriba-sinov ishlariga Guliston san'at kolleji, Namangan san'at kolleji, Buxoro madaniyat kollejlariidagi tajriba-sinov guruhlarini tanlab olindi. O'tkazilganligi haqida dalolatnoma va ma'lumotnomalar rasmiylashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarni bilish hamda xabardorlik darajasini avloddan-avlodga yetkazish uchun madaniyat va san'at kolleji ta'limi jarayoniga singdirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



“XAMSA” TABDILLARIDA TA'LIM-TARBIYA MAVZUSINING YORITILISHI

Tojiboyeva O. T. (TDPU)

Abstract

This article analyzes the ways of interpretation of the theme of upbringing in prosaic versions of dastans of Alisher Navoi.

Резюме

В данной статье анализируются пути освещения темы воспитания в прозаических версиях дастанов Алишера Навои.

Tayanch tushunchalar: *davr, kitobxon, tabdil, Xamsa, ta'lim-tarbiya, ustoz, axloq mezonlari.*

Alisher Navoiyning asarlari besh asrdan buyon kishilarga ma'naviy ozuqa berib, har jihatdan komillikka yo'naltirib, axloqan pok, ma'nan yetuk insonni shakllantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Shoir lirik kulliyoti-yu yirik dostonlarida inson xulqiga oid axloq mezonlarini ibrat qilib ko'rsatar ekan, fazilatlamining boshi ilm olishda va yaxshi tarbiyada deb hisoblaydi. Komillikning asl moyasi ham ilm va to'g'ri olib borilgan ta'lim-tarbiyaning samarasi ekanligini e'tirof etadi. Ayniqsa, “Majolis un-nafois” tazkirasida bilimli, kasb- hunarga rag'batli bor kishilarni mehr bilan tilga oladi. Sababi insonni “kamolotga yetaklovchi fazilatlarini nihoyatda qadrlagan va o'z asarlari bilan targ'ib va tashviq qilishdan charchamagan ulug' Navoiy har tomonlama kamolotga intilgan yoshlarining, shogirdlarining harakatidan cheksiz quvongan. Ularning hayotda,